

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**KUDAYBERGENOVA GULPARSHIN POLATBAEVNA**

**QORAQALPOQ TILIDA BADIY TAKROR**

(K.Raxmanov she'riyati misolida)

**10.00.03 – Qoraqalpoq tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Kudaybergenova Gulparshin Polatbaevna**

Qoraqalpoq tilida badiiy takror (K. Raxmanov she’riyati misolida).....3

**Кудайбергенова Гулпаршын Полатбаевна**

Художественный повтор в каракалпакском языке (на примере  
поэзии К.Рахманова) .....23

**Kudaybergenova Gulparshin Polatbaevna**

Artistic Repetition in the Karakalpak Language (based on the Poetry of  
K.Rakhmanov) .....45

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**KUDAYBERGENOVA GULPARSHIN POLATBAEVNA**

**QORAQALPOQ TILIDA BADIY TAKROR**

(K.Raxmanov she'riyati misolida)

**10.00.03 – Qoraqalpoq tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil3388 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta’lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Seytnazarova Injayim Erjanovna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Najimov Perdebay Aymanovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Kazimbetova Ziywar Maxsetbayevna**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Aliysher Navoyi nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01. raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz))

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25; e-mail: [karsuinfo@edu.uz](mailto:karsuinfo@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Q.K.Orazimbetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**J.O.Tanirbergenov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**A.K.Pirniyazova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori  
(DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Zamonaviy jahon tilshunosligida badiiy matnlarning lingvistik tahlili, xususan, poeziyada qo‘llaniladigan stilistik vositalarning, ayniqsa, takrorlar (repetitsiyalar)ning turlari va ularning estetik hamda semantik yuklamasi chuqur ilmiy izlanishlarga sabab bo‘lmoqda. Bugungi lingvopoetik tadqiqotlar poetik diskursda takror vositalarining afektiv-estetik funksiyalarini, matnning ichki melodikasini yaratishdagi rolini va poetik strukturalarni shakllantirishdagi o‘rnini aniqlashga qaratilmoqda. Ingliz, rus, fransuz, nemis, ispan va yapon poeziyasi asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, takror vositalari faqat ifoda vositasi emas, balki idrokning psixolingvistik jarayonlariga ham ta‘sir etuvchi semantik-pragmatik mexanizmdir. Takrorlarning metaforik ma‘nosi, ritmik uyushuvdagi o‘rni va uslubiy xususiyatlari hozirgi kunda poetik struktura tahlilining markaziy yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, N.Homskiy, Y.Lotman, R.Jakobson kabi olimlarning ishlari takrorlar semantikasi va sintaktik pozitsiyasining tipologiyasiga asosiy yo‘l ochib bergan. Shu bois jahon tilshunosligidagi bunday yo‘nalishi doirasida qoraqalpoq she‘riyatini ham zamonaviy metodlar asosida tahlil qilish zarurati paydo bo‘ladi.

Dunyo tilshunosligida poetik tekstlarni o‘rganish chog‘ida stilistik vositalar, ayniqsa takrorlarning mantiqiy va emotsional yuklamasi ko‘p e‘tiborga olinmoqda. Bugungi kunda kognitiv lingvistika, psixolingvistika, diskursiv poetika kabi sohalaridagi yondashuvlar asosida badiiy takrorlarning anglash va ta‘sirchanlik jarayonidagi roli o‘rganilmoqda. Jumladan, takrorlar orqali poetik ifoda yanada kuchaytiriladi, obrazli tasvir kengaytiriladi, auditoriyaning idrokiga kuchli ta‘sir ko‘rsatiladi. A.Wierzbicka, P.Verdonk, L.Jeffries kabi olimlar takrorlarning semantik va kommunikativ xususiyatlariga alohida to‘xtalgan. Ayniqsa, lirik poeziyada takror vositalari muallifning hissiy-ruhiy holatini obrazli ifodalashda kuchli rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham aytib o‘tilgan ilg‘or tadqiqotlar asosida qoraqalpoq poeziyasini, xususan K.Raxmanov she‘riyatini ham mukammal stilistik tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa shoir she‘riyatini dunyo poeziyasi kontekstida chuqur ilmiy baholashga va milliy poetik madaniyatni global maydonda tanitishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi millatlararo bag‘rikenglik siyosati natijasida ona tilimizning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. “O‘z tilini hurmat qilgan ma‘rifatli el boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi. O‘zbekistondagi bag‘rikenglik siyosati tufayli, hozirda yurtimizda yagona oila bo‘lib yashayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillariga o‘z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilmoqda”<sup>1</sup>. Qoraqalpoq tilshunosligida poetik matnlarni zamonaviy stilistik va lingvopoetik yondashuvlar asosida tadqiq etish ehtiyoji kundan-kunga oshib bormoqda. Xususan, milliy she‘riyatda keng qo‘llaniladigan stilistik vositalardan biri – badiiy takrorlar hali to‘liq ilmiy jihatdan o‘rganilmagan. Ko‘pgina qoraqalpoq shoirlarining, jumladan, xalq shoiri K.Raxmanov ijodida uchraydigan leksik,

---

<sup>1</sup>Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi//<https://president.uz/uz/lists/view/2954>

sintaktik, fonetik takrorlar milliy tafakkurning obrazli ifodasi, poetik ifoda madaniyatining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Ayni paytda, Qoraqalpog‘iston fanida bunday tadqiqotlar stilistik strukturani xalq ruhiyati bilan bog‘lash, til va madaniyat uzviyligini ochib berish nuqtayi nazaridan dolzarbdir. Shuningdek, qoraqalpoq adabiyotshunosligida K.Raxmanov ijodini lingvistik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilgan tadqiqotlar soni yetarli emas. U shoir, yozuvchi, dramaturg. Takrorlar vositasida shoir qanday semantik maydonlarni tashkil qilganligi, ularning badiiy semantik yuklamasi, stilistik dominantalari aniqlansa, nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjima nazariyasi sohalari uchun ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday izlanishlar tilning badiiy imkoniyatlarini ochib berish, yangi til birliklari va stilistik konstruksiyalarni aniqlash, hamda ularni o‘qitish metodikasiga joriy etish uchun ham zarurdir. Shu bois, badiiy takrorlarning funksional-stilistik tabiatini o‘rganish qoraqalpoq tilshunosligidagi dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850 “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rni va mavqeiini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2021-yil 16-iyuldagi 135-son “Qoraqalpoq tilini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bosh yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Badiiy matndagi badiiy takrorlar so‘nggi paytlarda keng tarqalgan hodisa bo‘lib, turli janrlarda uchramoqda. Uzoq vaqtdan buyon u lingvistik tadqiqotining obykti sifatida qator tilshunoslar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Takrorlarning kognitiv, milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar mavjud. Masalan, Sh.Balli, A.Shomaqsudov, S.A.Glazirina, V.Yu.Kazakova, E.A.Davidova, I.I. Turanskiy, E.V. Metlyakova<sup>2</sup> singari olimlar takrorni o‘zbek, ingliz, rus va fransuz tillari materiallarida tahlil qilib, uning nazariy masalalariga alohida e‘tibor

---

<sup>2</sup> Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974. – 82 б.; Глазирина С.А. Стилистические и текстообразующие функции повтора словообразовательных единиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1993. – 22 с.; Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Высшая школа, 1979. – 283 с.; Давидова Е.А. Расширенный повтор и перифраз в современном английском публицистическом тексте: Дис. ...канд. филол. наук. – М., 2007. – 155 с.; Туранский И.И. Средства интенсификации высказывания в английском языке. – Куйбышев, 1987. – 285 с.; Метлякова Е.В. Лексический повтор как семантико-стилистика категория организации лирического текста в раннем творчестве Анны Ахматовой: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2011. – 25 с.

qaratgan. Ingliz tilshunoslari takrorning turlari va ularning matnda qo‘llanilishini ko‘proq ilmiy jihatdan o‘rganishgan<sup>3</sup>, O‘zbek tilshunosi A.Hojiyev va qoraqalpoq tadqiqotchisi A.Abdiyevlar badiiy takrorning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini tahlil qilgan<sup>4</sup>.

Олимплар N.P.Pototskaya, Z.I.Xovanskaya, I.Yu.Kovalchu<sup>5</sup> takroni stilistik usul sifatida qarab, uning matn va diskursdagi vazifalarini, o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilganlar. Masalan, N.P.Pototskaya takror yoki reprizani ma’lum bir sintaktik tuzilma va gap tarkibidagi bir yoki bir necha so‘zning ikki yoki undan ko‘p marta qo‘llaniladigan stilistik usul, deya baholayd<sup>6</sup>. S.A.Glazirina takrorning ingliz tilida matn yaratish vazifasini, I.I.Kovalchuk rus tilida takror va uning matndagi funksiyalarini, E.V.Metlyakova A.Axmatovanning she’riy matnlari asosida leksik takroni tadqiq etgan. V.Yu.Kazakova esa rus va ingliz tillarida semantik takrorning umumiy va o‘ziga xos tomonlarini o‘rganadi.

Rus tilshunosligida badiiy asar tilini funksional-stilistik, semantik-strukturaviy yo‘nalishdagi tadqiqi R.O.Yakobson, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, G.O.Vinokur, B.V.Tomashevskiy, L.V.Shcherba, V.V.Zadornova, A.A.Lipgart, G.I.Klimovskayalar, turkiy tilshunoslikda – B.Sarimsoqov, N.Mahmudov, I.K.Mirzayev, M.Yo‘ldoshev, qoraqalpoq tilshunosligida – A.Najimov, A.Bekbergenov, Sh.Abدينazimov, G.Qarlibaeva, B.Yusupova, G.Allamberganova va boshqa олимплар tomonidan olib borilgan. Shunday bo‘lsa-da, qoraqalpoq tilshunosligida she’riy asarlarning lingvopoetikasi, shu jumladan badiiy takrorlar hozirgacha maxsus tarzda to‘liq o‘rganilmagan. Shu sababli, she’riy asarlarning o‘ziga xos til xususiyatlarini o‘rganish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti “Zamonaviy qoraqalpoq tilining dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** K.Raxmanov she’riyatidagi badiiy takror turlarini aniqlash, o‘rganish va badiiy takrorning estetik ta’sirchanligini lingvopoetik jihatdan tahlil qilishdan iborat

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

lingvopoetikada badiiy takrorning o‘rganilishini faktik baza asosida sharhlash;

badiiy takrorning nazariy asoslarini aniqlash;

---

<sup>3</sup> Shih-ping, W. Corpus-based approaches and discourse analysis in relation to reduplication and repetition / Wang Shih-ping // Journal of Pragmatics. – 2005. – № 37; Tovares A.V. Intertextuality in Family Interaction: Repetition of Public Texts in Private Settings. Unpublished Ph.D. Dissertation, Georgetown University. Public Medium, Private Talk: Gossip about a TV Show as “Quotidian Hermeneutics.” Text & Talk, 2006. 26.4:463–91.

<sup>4</sup>Хожиева. Ўзбек тилида кўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент: ЎзФАН, 1963. – Б. 35; Абдиева.Т. «Алломиш» достони тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Нукус, 2011. – Б. 17.

<sup>5</sup> Потоцкая Н.П. Стилистика современного французского языка: Теоретический курс. – М.: Высшая школа, 1974. – С. 184; Хованская З.И. Стилистика современного французского языка. – М.: Высшая школа, 1984. – С. 290-315; Ковальчук И.Ю. Повтор и его функции в тексте: Дис.... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2004. – С. 49.

<sup>6</sup> Потоцкая Н.П. Стилистика современного французского языка: Теоретический курс. – М.: Высшая школа, 1974. – С. 184.

K.Raxmanov she'riyatidagi fonetik va stilistik badiiy takror xususiyatlarini ochib berish;

shoir asarlari tilida leksik-grammatik takrorning she'riy matn mazmunini boyitishdagi o'rnini aniqlash.

**Tadqiqot obyektini** Qoraqalog'iston xalq shoiri, yozuvchi, dramaturg Kenesbay Raxmanovning "Argımağım", "Sen haqqında qosıq", "Gúzgi muhabbat", "Watan tuyğısı", "Tunğışımız qız bolsa...", "Tań ashıǵı", "Watan muhabbatı menen" she'riy to'plamlaridan olingan misollar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmeti** K.Raxmanov she'riyatida badiiy takrorlarning o'ziga xos fonetik, leksik, grammatik va stilistik xususiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Ishda stilistik va lingvopoetik tadqiqot usullaridan – bayon etish, kompleks tahlil, qiyoslash, lingvopoetik tahlil va fikrlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi qo'yidagilardan iborat:**

badiiy takrorning tilshunoslikda o'rganilishi va uning nazariy-metodologik asoslari umumlashtirilib, qoraqalpoq tilida bu hodisaning ilmiy o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tilshunoslikka oid mavjud nazariy qarashlar milliy poeziya materiali asosida sinovdan o'tkazilgan;

K.Raxmanov she'riyatida fonetik tabiatga ega badiiy takrorlar – alliteratsiya va assonanslarning matn tovush tizimini tashkil etishdagi o'rni, ularning turli sintagmatik pozitsiyalarda takrorlanishi orqali qo'shimcha emotsional va ekspressiv semantik yuklama hosil qilishi asoslangan;

leksik takror va uning turlari orqali poetik ifoda yanada kuchaytirilgani, obrazli tasvirlar kengaytirilgani isbotlangan;

shoir ijodida badiiy takrorlarning grammatik turlari – so'zlar, so'z birikmalari, so'z turkumlari, morfologik shakllar hamda sintaktik konstruktsiyalarning badiiy ifoda maqsadida qayta ishlatilish holatlari aniqlanib, ularning matnning badiiy-estetik qiymatini oshirishdagi funksional roli misollar bilan dalillangan.

K.Raxmanov asarlarida stilistik figuralar – anafora, epifora, inversiya, simploka va boshqa sintaktik takrorlarning funksional-xususiyatli ko'rinishlari ochib berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

qoraqalpoq tilshunosligidagi badiiy takrorlarni o'rganish bo'yicha tahlil qilingan materiallar, masalaning ilmiy tadqiqi natijasida olingan xulosalar, dalillar va fikrlarda hozirgi qoraqalpoq tilshunosligi, xususan, lingvopoetika, matn lingvistikasi kabi sohalar uchun muhim ilmiy ma'lumotlar to'plangan;

qoraqalpoq tilshunosligida badiiy takrorning maxsus tadqiqot obyekti qilib olinganligi va tadqiqot natijalari bo'yicha olingan ilmiy xulosalar ushbu yo'nalishdagi kelgusi ilmiy tadqiqotlarni olib borishda manba vazifasini bajarishi, oliy o'quv yurtlarida lingvopoetika, matn lingvistikasi fanlarini o'qitishda amaliy jihatdan yordam berishi isbotlangan;

shoir asarlari matnlaridagi badiiy takrorlarni tahlil qilish natijalari lingvopoetik, izohli, terminologik lug'atlar tuzishda, qoraqalpoq tilshunosligi bo'yicha yangi o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishida keltirilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan misollar K.Raxmanov asarlari matnlaridan olinganligi, taqqoslash va xulosalardagi kompleks tahlil, bayon qilish va fikrlarni umumlashtirish metodlari bilan asoslanganligi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan tavsiflanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati, tadqiqot ishi lingvopoetikaning nazariy masalalari, badiiy takror, ayniqsa, Kenesbay Raxmanovning poetik takrorlarni qo'llash mahorati, she'rlarining o'ziga xos xususiyatlariga oid masalalarni tadqiq etish bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldirish va kengaytirish bilan belgilanadi. Dissertatsiya xulosalari kelajakda boshqa shoirlarning asarlari tilini o'rganishda hisobga olinishi mumkin. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardagi materiallar va natijalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun qoraqalpoq tilining lingvopoetikasi, stilistikasi bo'yicha o'quv adabiyotlarini tuzishda, nutq madaniyati, badiiy matnning lingvistik tahlili, lingvopoetikasi kabi fanlarni o'qitishda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalari badiiy asar tili bo'yicha lingvopoetik tadqiqot olib boruvchi tadqiqotchilar uchun ham amaliy jihatdan katta yordam beradi.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi.** Kenesbay Raxmanov she'riyatida badiiy takrorning o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

badiiy takrorlarning leksik va grammatik turlarining badiiy ifoda maqsadida she'riy matnlarda ishlatilishi, ularning matn badiiy-estetik qiymatini oshirishdagi funksional roli to'g'risidagi nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F-1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani amalga oshirishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 19-maydagi № 293/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy loyiha mazmuni yangi materiallar bilan boyitildi;

badiiy takrorning tilshunoslikda o'rganilganlik darajasi, бу тил ҳодисасининг ўзига хос лисоний хусясиятлари тўғрисидаги назарий-амалий қарашлар ва хулосалар Qoraqalpog'iston telekanalining "Til boyligi-el boyligi" ko'rsatuvida va Qoraqalpog'iston radiokanalining "Tilga e'tibor-elga e'tibor" eshittirishlarini tayyorlashda foydalanildi. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining 2024-yil 25-sentyabrdagi 05-22/423-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu ko'rsatuv va eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni takomillashtirilgan, ilmiy dalillar bilan ta'minlangan;

K.Raxmanov she'riyatida badiiy takrorlarning matn tovush tizimini tashkil etishdagi o'rni, takrorlarning matndagi funksional xususiyatlari haqidagi ilmiy xulosalardan Berdaq nomidagi qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyida ilmiy-amaliy loyihalarni bajarishda, arxiv materiallarini to'plashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi Berdaq nomidagi qoraqalpoq

adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2025-yil 13-yanvardagi 01-02/03-13-son ma'lumotnomasi). Natijada adabiyot namoyandalariga bag'ishlab o'tkazilgan adabiy tadbirlar hamda ekspozitsiyalar yangi manbalar bilan boyitilgan.

**Ishning aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari bo'yicha 8 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan 4 ta respublika konferensiyasi, 4 ta xalqaro konferensiyada ilmiy ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta maqola chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta maqola, shundan 8 ta maqola respublika hamda 1 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Ishning hajmi va qurilishi.** Dissertatsiya ishi tuzilishi jihatidan kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va mavzuga oid lug'atlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 121 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tilshunoslikda badiiy takrorning o'rganilishi**" deb nomlangan bo'lib, uchta fasldan iborat. Bobning birinchi fasli "**Badiiy takrorning nazariy asoslari**" deb nomlangan. "Takror" ya'ni qaytarish termini lingvistik asarlarda "takrorlash," "reduplikatsiya" (so'z o'zagini takrorlash bilan yangi so'z hosil qilish), "ikki marta qaytarish," ayrim hollarda bir-biridan ajralmaydigan turli ma'nolarni ifodalovchi tushuncha sifatida tahlil qilinadi<sup>7</sup>. Tadqiqotchilar takrorlarni tilning har bir sohasida (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis) o'rgangan<sup>8</sup>.

Adabiyotlarda takrorning bir necha asosiy turlari ajratiladi: 1) Takrorlanuvchi til birliklarining xususiyatiga ko'ra – tovush, morfema, so'z, frazeologizmlar, morfologik shakllar, leksik birliklar, sintaktik qurilmalar takrori; 2) Matn tarkibida bir-biriga nisbatan joylashish belgilari bo'yicha kontakt va distant takrori; 3) Joylashish tartibi bo'yicha matn tarkibida anaforik, doira, epiforik, qator va band takrori; 4) Matndagi birliklarning takrorlanishiga ko'ra ikki, uch va ko'p marta keladigan takrorlar; 5) Takrorlanuvchi birliklar xususiyatiga ko'ra – to'liq va to'liqsiz takrorlarga ajratiladi<sup>9</sup>.

<sup>7</sup> Axmanova S. Словарь лингвистических терминов.-М.: Просвещение, 1987. – С. 378.

<sup>8</sup> Абдуллаева А. Эмоционально-экспрессивная лексика в современной узбекской прозе (по роману Абдуллы Каххара «Огни Кошчинара»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1968. – С. 18-19; Хасанов А. Абдулла Каххор хикояларида бадий такрорнинг лингвопоэтик хусусиятлари // Илм, фан тараккиёт интеграцияси: Илмий-услубий мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 5-8.

<sup>9</sup> Блок М.Я. Очерки по стилистике современного английского языка. – М.:Изд-во литературы на ин.яз., 1975. – С. 67.

Badiiy matndagi badiiy takrorlarni o'rganishda tadqiqotchi olimlar turli fikrlarni bildiradilar. Masalan, T.Boboyev badiiy takroni o'rganishda ularni quyidagicha tasniflaydi: 1. Fonetik takrorlar: assonans, alliteratsiya, konsonans va boshqalar; 2. Leksik takrorlar: asindeton, polisindeton, redif, anafora, epifora; 3. Morfologik takrorlar: so'z-o'zak takrori, affiks takrori, so'z turkumlari takrori, so'z birikmalari takrori, uchma-uch takrori (simploka) va boshqalar; 4. Sintaktik takrorlar: parallelizm, band takrori, qator takrori (aylanma, naqorat, tautologiya va boshqalar)<sup>10</sup>.

Hozirgi qoraqalpoq tilida ham badiiy takrorning o'ziga xos bir necha turlari mavjud bo'lib, ular ayniqsa she'riy asarlarda badiiylik, ta'sirchanlik bera olishi bilan tavsiflanadi. Bunda badiiy takroni oddiy so'zlar takrorlanishidan ajratib turadigan belgilar mavjud. Ularning qiyosiy ko'rinishi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Badiiy takror	Takroriy so'zlar
Orasidagi to'xtam (pauza) uzoqroq bo'ladi	Orasidagi to'xtam (pauza) qisqa bo'ladi
Ikki, uch va undan ko'p so'zlar takrorlanib kelishi mumkin	Takroriy so'zlar ikki komponentli bo'ladi
Takrorlangan so'zlar orasiga vergul qo'yiladi	Takroriy so'zlar orasiga chiziqcha qo'yiladi
She'riy satrlarda istalgan joyda (birinchi satrda, ikkinchi satrda va h.k.) takrorlana beradi	Oralariga so'z qo'shilmaydi
Doimiy o'ringa ega emas	Semantik jihatdan kuchaytirish yoki ko'plik ma'nosini bera oladi;
Oralariga so'z solib ham takrorlanadi	Bir xil takroriy so'zlar she'r satrlarida bir necha marta qo'llanilmaydi.
Semantik jihatdan insonga emotsional ta'sir ko'rsata oladi	

Demak, badiiy takrorning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular badiiy matnda so'z takrori, so'z birikmasi takrori, gap shaklidagi takror kabi shakllarda uchraydi. Biz tadqiqot ishimizda badiiy takrorning fonetik, grammatik va leksik-sintaktik turlarini tahlil qilib, K.Raxmanov she'riyati misolida asoslashga harakat qildik.

Bobning **“Umumiy va turkiy tilshunoslikda badiiy takrorning o'rganilishi”** deb nomlangan ikkinchi fasli badiiy takrorning o'rganilish tarixiga bag'ishlangan. Eng qadimgi davrlarda badiiy takror tushunchasi ritorik vosita, so'ng stilistika ilmining alohida soha bo'lib ajralib chiqishi natijasida stilistikada tasviriy vosita, ayrim tadqiqotlarda matn birligi, badiiy matndagi gaplarni bir-biri bilan bog'lovchi birlik sifatida tadqiq qilingan. Tilshunoslikda badiiy takror masalasi, uning matn ko'lamidagi o'rni, takrorlanuvchi birliklar komponentlarining soni, turlari, vazifasi bo'yicha tadqiqotchilar turli fikrlarni qayd etganlar.

Badiiy takrorning o'ziga xos xususiyatlari xorijiy va mamlakatimiz tilshunos olimlari tomonidan atrofli tadqiq qilingan. Bu hodisaning tarixini o'rganuvchilardan biri N.Pirogova bo'lib, dastlabki fono-stilistik qarashlar

<sup>10</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 431.

E.D.Polivanovning asarlarida uchraydi deb ta'kidlaydi. Uning “Фонетика интеллектуального языка” maqolasida tovushlarning talaffuziga alohida e'tibor qaratilgan. U so'zlovchi o'z fikrining ta'sirchanligini ta'minlash uchun shu tilning orfoepik me'yorlarini chuqur o'zlashtirish bilan birga, gapda so'zlarni o'rinli bog'lay olish kerak degan juda qimmatli fikrni bildiradi. Nutqda ta'sirchanlikni ta'minlashda asosiy fonostilistik vositalarning bir turi badiiy takror va intonatsiyadir. U so'zlash vaqtidagina yuzaga chiqadigan hodisadir.

Badiiy asarlar tilida unli va undosh tovushlarning takrorlanib kelishi ham ekspressiv ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Tadqiqotchi G.V.Vekshin rus tilida assonans va alliteratsiya hodisalarini o'rganadi. O'zbek tilshunosligida badiiy takror va ularning nutqda qo'llanilishi, xususiyatlari va vazifasi haqidagi fikrlar dastlab A.G'ulomov tomonidan bildirilgan. Olim badiiy takrorlarni fonostilistik vositalar qatoriga kiritadi. Akademik G'.Abdurahmonov va olim A.Abduazizovlar<sup>11</sup> ham badiiy takrorlar bo'yicha qimmatli fikrlar bildirgan. Fonetik vositalardan hisoblangan assonans va alliteratsiyaning stilistik imkoniyatlari haqida Sh. Abdurahmanov<sup>12</sup>, H. Sharafuddinov<sup>13</sup>, A. Haydarov<sup>14</sup>, X. Daniyarov<sup>15</sup>, A. Shofqorov<sup>16</sup>, E. Qilichev<sup>17</sup> tamonidan bildirilgan mulohazalar ham katta ahamiyatga molik.

Bundan tashqari, o'zbek tili lingvopoetikasida badiiy takror D.Andaniyazova, M.Yoqubbekova, D.Jamoliddinova, F.Ibragimova, B.Yo'ldoshev, M.Yo'ldoshev, Sh.Mahmadiyev, I.Mirzayev, G.Muhammadjonovanning ishlarida ko'rib chiqilgan. Jumladan, D.Shodiyeva Muhammad Yusuf she'rlaridagi takrorlarni tahlil qilar ekan, bunda u takroni uslubiy vosita sifatida kontaktli va distantli ko'rinishdagi takrorlarga bo'lib o'rgangan.

Bobning uchinchi fasli “**Qoraqalpoq tilida badiiy takrorning o'rganilishi**” deb nomlanadi. So'nggi vaqtlarda badiiy takror, uning turlari tilshunoslikning yangi sohalari bo'lgan lingvopoetika va matn lingvistikasida yozuvchi, shoirlarning asarlarini tahlili asosida atroflicha o'rganilib, tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Qoraqalpoq tilida takror, takror so'z, badiiy takror masalalari o'tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab tilshunos olimlarning diqqat markazida bo'la boshladi. O'sha davrlarda badiiy takror termini aniq tahlil qilinmasa-da, u bir qancha ilmiy asarlarda tilga olingan. Eng avval 1971-yili tadqiqotchi olim A.Najimov “Hozirgi qoraqalpoq tilidagi takror” nomli maqolasida qoraqalpoq tilidagi takror so'zlar haqida bir qancha qimmatli fikrlarini beradi va uni takroriy juft so'z degan nom

<sup>11</sup> G'ulomov A.G., Abdurahmonov G., Asqarova M. O'zbek tili darsligi. – T.: O'qituvchi, 1986; Abduazizov A. Fonostilistik vositalarning o'rganilishi // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. 2-сон.

<sup>12</sup> Abdurahmonov Sh., Asqarova M. O'zbek tili darsligi. – T.: O'qituvchi, 1986.

<sup>13</sup> Шарафуддинов Х. Поэтик фонетика // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. 2-сон.

<sup>14</sup> Haydarov A. Pauzaning fonostilistik imkoniyatlari // Filologiya masalalari ilmiy maqolalar toplami. – Toshkent: Fan, 2007.

<sup>15</sup> Daniyarov X. Tovush takrorining uslubiy xususiyatlari // Вух DU ilmiy axboroti. – Buxoro, 2007. - №1.

<sup>16</sup> Шофқоров А. Миртемир шеърятда аллитерация // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. - №4.

<sup>17</sup> Қиличев Э.Р. Ўзбек тилининг практик стилистикаси // Педагогика институтлари филология факультетлари студентлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 1980; О'ша muallif. Интонация ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. - №6. – Б. 63; О'ша muallif. Фonetик воситаларнинг ифодалилиги // Түркий тиллердин фонологиясы хэм морфонологиясының әхмийетли мәселелери. – Нөкис, 2005. – Б. 16.

bilan ataydi. Shuningdek, juft soʻzlar bilan takror soʻzlarning farqi, ularning qoʻllanilishi, boʻlinishlari, oʻrin tartibi, fonetik va morfologik tavsifini tahlil qilgan olim A.Bekbergenov ham oʻzining ilmiy asoslangan fikrlarini beradi. Olim bu tadqiqotida takror soʻzlarni takrorlama soʻzlar deb ataydi.

Qoraqalpoq tilshunosligida folklorning (lingvofolkloristika), badiiy adabiyotning tilini oʻrganish keyingi yillarda ancha qoʻlga olindi. Ayniqsa, qoraqalpoq adabiyotidagi klassik shoir-yozuvchilarning tilini oʻrganish tilshunos olimlarning asosiy tadqiqot obyektlaridan biriga aylandi. Bu borada eng birinchilardan boʻlib Sh.Abdinazimov, A.Abdiyev, G.Qarlibaevlarning ilmiy ishlari asosiy koʻrsatkich boʻla oldi. Mumtoz adabiyot vakillari asarlari tilining poetik sintaksisini tahlil qilishda badiiy takrorlar tilshunos olimlar nazaridan chetda qolmadi. Olim Sh.Abdinazimov oʻzining “Lingvopoetika” kitobida badiiy takror va uning turlari anafora, epifora, parallelizmlarga keng toʻxtalgan. Qoraqalpoq tilshunosligida soʻnggi davrlarda lingvopoetika sohasi boʻyicha tadqiqot ishlari ancha koʻpaydi. Ayniqsa, sheʼriyatdagi badiiy takror masalasi boʻyicha Z.Kazimbetova, J.Buxarbayeva va A.Nasirovalarning maxsus dissertatsiya ishlarida alohida taʼkidlab oʻtilgan va tahlillar berilgan<sup>18</sup>. Qoraqalpoq adabiyotida badiiy takror masalasi maxsus oʻrganilmagan boʻlsa-da, uning ayrim turlari haqida adabiyotshunos olimlar oʻz fikrlarini bildirgan. Xususan, K.Mambetov shunday yozadi: “Qofiya faqat sheʼrning garmoniyasini tartibga soladi, deb oʻylash ham oʻrinsiz. Koʻpchilik shoirlarning asarlarida sheʼrning boshidagi, oʻrtasidagi va oxiridagi qofiyalar saqlanib qolgan. Baʼzi sheʼrlarda bir xil soʻz, bir xil qofiya va anaforik bayon juda ustunlik qilib keladi”<sup>19</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Qoraqalpoq tilida fonetik va leksik takrorlar**” deb nomlangan boʻlib, uning birinchi faslida **fonetik takrorlar** – alliteratsiya, assonanslarning хусусиятлари кўрсатилиб, badiiy asarda har bir til birligi oʻz oʻrni va oʻlchoviga ega ekanligi taʼkidlangan. Agar adabiy asar tilida maʼlum bir tovush, soʻz, soʻz birikmalari, gap maqsadsiz takrorlansa, bu salbiy holat hisoblanadi. Shu sababdan badiiy asarda qoʻllanilgan har qanday badiiy takror asar tarkibidan mustahkam oʻrin egallagan boʻlsa, maʼlum bir badiiy maqsadga xizmat qilsa, demak, u badiiy tasvir vositasiga aylanadi.

“Oʻz oʻrnida qoʻllanilgan tovush takrori ritmni bezab, emotsional kuch beradi, taʼsirchanlikni oshirib, sheʼrda soʻz madaniyatini bir pogʻona yuqori koʻtaradi, qandaydir mazmunli qatorlarda kelib, uni ajratib koʻrsatishi ham lozim, biroq mazmunga qaraganda tovush takroriga kuch berish mazmunning sezilmay qolishiga ham taʼsir etishi mumkin”<sup>20</sup>.

Z.Qobilova fonosemantikamaning maʼnosini quyidagicha tushuntiradi: “Soʻzning fonosemantik maʼnosi uning butun fonetik tarkibi bilan belgilanadi. Bu

<sup>18</sup> Казымбетова З.М. Ж.Избасқанов асарларининг лингвопоэтик таҳлили: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. автореф. – Нукус, 2022; Вухарбаева J. J.T.Mátmuratov shıǵarmalarınıń lingvopoetikası: Filol. Ilim. filos. d-ri (PhD) dis. – Nókis, 2024; Насирова А.П. Қорақалпоқ халқ айтишувларининг лингвопоэтик таҳлили: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. автореф. – Нукус, 2024.

<sup>19</sup> Мәмбетов К. Әдебият теориясы. – Нөкис, 1995. – Б. 144.

<sup>20</sup> Стеблева И.В. Происхождения и развитие тюркской аллитерационной системы в связи и историческим родством тюркских и монгольских языков // Советская тюркология. – Москва, 1971. – №6. – С. 83

fonetik tarkibda asosiy fonema va kontekstual holatni biz fonostema deb ataymiz”<sup>21</sup>.

Fonetik takrorlar qadimgi xalq og‘zaki ijodida ham, qoraqalpoq she‘riyatida ham asosiy tasvirlash vositasi hisoblanadi. Bunga sabab – folklor asarini, shuningdek, she‘rni bayon qilish, shu jumladan she‘riy asarni og‘zaki ijro etishga qaratilganligidir. Mana shu xususiyat poetik fonetika birliklarining paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi. Ayniqsa, xalq qo‘shiqlari, tez aytish, topishmoq, maqol-matal, termalar, aytishuv, so‘z o‘yini (bahri bayt) kabi xalq og‘zaki ijodi janrlari tovushlar uyg‘unligi asosida paydo bo‘lgan.

Alliteratsiya badiiy takrorning bir ko‘rinishi bo‘lib, u badiiy so‘zni yanada jarangdor, chiroyli ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu ko‘pincha she‘riy asarlarda uchraydi. Ular o‘zaro qofiyalangan so‘zlar, so‘z birikmalari, qo‘shimchalar va tovushlarning takrorlanishi natijasida hosil bo‘ladi.

Shoir K.Raxmanov lirikasida fonetik badiiy takrorlar, ayniqsa, alliteratsiya turli shaklda qo‘llanilib, turli uslubiy vazifalarni bajargan va badiiylikni ta‘minlagan:

She‘r matnining istalgan bir qatoridagi (boshida, o‘rtasida, oxirida) so‘zlarda tovush takrori paydo bo‘ladi:

**Jaqsılıq jadrap júzlerde,**  
Quwanış tórlerge talpinsın (“Gúzgi muhabbat”, 141).  
**Jaz kúni juwılğan jórgegim,**  
**Jayılğan sol ekken tallarğa** (“Sen haqqında qosıq”, 69).

Bu she‘r satrlaridagi barcha so‘zlar “j” tovushi bilan boshlangan. Bunda “j” tovushi bilan yonma-yon kelgan ja, ju, jú, jó unli tovushlari ham tovush takrorini qofiyali tarzda hosil qilib, she‘rning ta‘sirchanligini, obrazlilikini ifodalay olgan.

K.Raxmanov ijodida assonans hodisasi ham samarali tarzda qo‘llanilgan. Assonansda unli tovushlarning takrori to‘liq va to‘liq bo‘lmagan holatda bo‘lishini ko‘rishimiz, ya‘ni uning ikki turi matnda bir-biridan ajratish mumkin: a) bir xil unli tovushlarning takrorlanib kelishi; b) har xil unli tovushlar to‘liq takrorlanmay o‘zaro bir xil bo‘lib kelishi:

**Aqıl ayqanday adamğa,**  
**Jaqtırmastan qadalma** (“Argımağım”, 57).

Bobning ikkinchi fasli “**Leksik-grammatik badiiy takror va uning turlari**” deb nomlangan. Qoraqalpoq tilida takrorning boshqa turlari kabi leksik va grammatik turlari ham olimlarning e‘tiborini tortib kelmoqda.

K.Raxmanov tilning tasviriy vositalaridan, ayniqsa leksik turidan mohirona foydalangan. Tilning badiiy vositalarining ichida eng murakkab va juda ko‘p qo‘llaniladigan turi hisoblangan o‘xshatishlar qoraqalpoq tilshunosligida har tovonlama o‘rganilib, uning nazariy asoslarini yaratilgan<sup>22</sup>. Shoir she‘riyatida o‘xshatishlardan badiiy takror turli xil grammatik yo‘llar bilan yaratilgan:

**Birińiz dúr kibi** shashılğan waqta,  
**Birińiz gúl kibi** ashılğan waqta,

<sup>21</sup> Кабилова З. Ўзбек тилининг фоносемантик воситалари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2008. – 25 б.

<sup>22</sup> Нажимов П. Қарақалпақ тилинде теңеўлер. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2014.

Jashlím jáháńge sıymaǵan, qızlar (“Sen haqqında qosıq”,36).

Shoir tomonidan individual uslubda qo‘llanilgan metaforik takrorlar asarning badiiyliğini ta‘minlashda xizmat qilgan:

Dárya aǵısları – **meniń jashlím,**

Ómir naǵısları – **meniń jashlím,**

Árman jarısları – **meniń jashlím,**

Bul baxıtlı dáwlet – meniń báhárim (“Sen haqqında qosıq”,56).

Quyidagi satrlarda takrorlanib kelgan **ko‘p yurak** so‘zi butunni uning qismlaridan biri orqali ifodalab, sinekdoxa hosil qilgan:

**Kóp júrekke** ot qoyıp,

**Kóp júrekke** muz taslap. (“Sen haqqında qosıq”,71)

Tilimizda ko‘p ma‘noli so‘zlarning ma‘no jihatdan bir-biridan uzoqlashib rivojlanishi natijasida paydo bo‘lganligi sababli leksik omonimlar yasaladi. Bunday usulda yasalgan takror so‘zlar ham shoir she‘rlarida uchrab, uslubiy vazifa bajargan. K.Raxmanov she‘riyatida qo‘llanilgan omonimik takrorning quyidagi turlariga misollar keltiramiz:

Talabı aldına baspaǵanlarǵa,

“Baxtı **qara**” degen ataq berildi.

**Qara** ireń tolı boldı ǵamlarǵa,

**Qara** menen belgiledi ólimdi.

Pay, tek usı **qara** boyawlar menen,

Qızlardıń shash, qasın boyasam eken (“Tuńǵışımız qız bolsa...”, 83).

Keltirilgan satrlarda *qara* cъзи turli ma‘nolarni anglatib, takrorlanib qo‘llangan: *qora* – ishi yurishmagan, *qora* – g‘am, tashvish belgisi, *qora* – umrdan o‘tish, *qora* – rang, bo‘yoq kabi.

K.Raxmanov she‘riyatida mohirona qo‘llanilgan takror antonimlar ham asar matnining rangbarangligini ta‘minlaydi:

Boyımdaǵı bulaǵımdı sarqıp al,

Aldı burın. Sen olardan artıq al.

**Kúlip-jılap, jılap-kúlip** jasayman.

Aytar ǵam da, quwanış ta bir súy dep.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Qoraqalpoq tilida grammatik va stilistik badiiy takrorlar**” deb nomlangan. Takrorning bu turlari fonetik va leksik badiiy takrorlarga nisbatan kengroq tushunchalarni hosil qiladi.

Bobning birinchi fasli “**Morfologik takror**” deb nomlangan. Ma‘lumki, lug‘at tarkibidagi so‘zlarning hammasi ham bir xil ma‘no anglatib kelavermaydi. Ularning ayrimlari o‘zining leksik ma‘nosiga ega bo‘lsa, ayrimlari esa faqat grammatik ma‘no ifodalash bilan cheklanadi. Mana shunday o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda, morfemalar ikki turga bo‘linadi. Bu haqida olim M.Qudayberganov quyidagi fikrni bildiradi: “O‘zak morfemalar bilan affiks morfemalar orasidagi asosiy farq ularning ma‘nosida bo‘lib, o‘zak morfemalar leksik ma‘no, affiks morfemalar esa grammatik ma‘no ifodalaydi. Ikkinchidan, o‘zak morfemalar qo‘llanilishi bo‘yicha erkin bo‘lib, ular alohida turgan holda ham, yordamchi morfemalar bilan birgalikda ham qo‘llaniladi. Affiks morfemalar

esa alohida turgan holda qo'llanilmaydi, faqat o'zak morfemalar bilan birgalikda so'z yasash, shakl yasash yoki so'z o'zgartirish kabi grammatik vazifalarni bajaradi"<sup>23</sup>. Biz bu ma'lumotlarga tayangan holda hozirgi qoraqalpoq tilidagi morfemalarni: 1) o'zak morfemalarning takrorlanib kelishi; 2) affiks morfemalarning takrorlanib kelishi deb ajratib, K.Raxmanov she'riyati misolida tahlil qildik.

Shoir she'rlarida qo'llanilgan va tahlilga tortilgan so'zlar tarkibidagi o'zak morfemalar yolg'iz turib ham, affikslarni qabul qilib kelib ham takror qo'llangan:

Turmistín kóp qıyqańı,  
Juwlatadı quyqanı,  
**Balıqshısı** suw tappay,  
**Balıq** awlar diyqanı (“Argımağım”,42).

Keltirilgan misollarda *balıq* so'zi she'ning oxirgi bandida o'zak morfema holida umumiylikni anglatib qo'llanilgan bo'lsa, oldingi qatorda *balıqshısı* so'zi, ya'ni *balıq* o'zak so'ziga *-shı* otdan ot yasovchi affiks morfemasi, *-si* egalik affiksini qabul qilib qo'llanilgan.

Shoir asarlarida bir o'zak so'zga har xil affikslar qo'shib takrorlanib kelish holatlari ko'plab uchraydi:

Jerde sen **jalğızsań**, men de **jalğızban**,  
Qádirli nárseler **jalğızdan** bolar.  
Dáwir juldızların parlap janğızğan  
**Jalğızlar** jasasın!  
Sanawlı olar... (“Sen haqqında qosıq”,33).

Keltirilgan misolda takror qo'llanilgan *yolg'iz* so'zining takrorlanib kelishi shaxs-son, kelishik va shakl yasovchi affiks morfemalarni qabul qilgan. Ya'ni, *-san* shaxs-son qo'shimchasining II shaxs qo'shimchasi, I shaxs qo'shimchasining *-man* turi, *-dan* chiqish kelishigi, *-lar* ko'plik qo'shimchalari qo'shilgan. Bu ham shoirga xos individual uslublardan biri bo'lib, o'zakning har xil affikslarni qabul qilib, takrorlanib kelishi misralarga obrazlilik bera olgan.

Endi K.Raxmonov ijodida affiks morfemalarning takror qo'llanish holatlariga to'xtalib o'tamiz. She'rlardagi bunday morfemalarning turlari xilma-xil bo'lib, ular matnga ma'lum emotsionallik, ifodalilik beradi.

1. So'z yasovchi affiks morfemalar:

Jaqsılıq hám jamanlıq,  
Hadallıq hám haramlıq,  
Danalıq hám nadanlıq,  
Insaniyattıń anası (“Argımağım”,41).

Bu misoldagi ot yasovchi *-lıq* affiks morfemasi qarama-qarshi ma'no beradigan so'zlarni bog'lab, antonimik ma'noda qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin.

2. So'z o'zgartiruvchi affiks morfemalar: qaratqich, shaxs-son, ko'plik, ayniqsa, kelishik qo'shimchalarining badiiy takror holida kelishi boshqa shoirlarga nisbatan o'zgacha shaklda uchraydi:

<sup>23</sup> Қудайбергенов М. Қарақалпақ тилинің морфемикасы. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2001. – Б. 7.

